


ITOCHU Corporation hamda Toyo Engineering Corporation kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

// 25.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/itochu-corporation-hamda-toyo-engineering-corporation-kompan>



Bugun "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinosari Yevgeniy Korjikov boshchiligidagi Yaponianing ITOCHU Corporation hamda Toyo Engineering Corporation kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda tomonlar O'zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirish strategiyasi, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va "yashil" mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni muhokama qildilar.

Shuningdek, muzokarada Toyo Engineering Corporation kompaniyasini litsenziar va texnik hamkor sifatida jalg qilgan holda bir qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish, Yaponianing moliyaviy institatlari tomonidan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Ma'lumot uchun: ITOCHU Corporation — shtab-kvartirasi Tokiada joylashgan, yapon savdo uylarining "katta beshligi"ga kiruvchi universal savdo uyi. Kompaniya ichki savdo, import-eksport va to'qimachilik, mashinasozlik, metallar, minerallar, energetika, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, ko'chmas mult, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari kabi turli tovarlarning tashqi savdosiga bilan shug'ullanadi.

Toyo Engineering Corporation — muhandislik, qurilish kompaniyasi bo'lib, asosan neft-gaz va neft-kimyo, gaz-kimyo sanoati bilan shug'ullanadi. 1961-yil-tashkil etilganidan buyon kompaniya karbamid ishlab chiqarish texnologiyasi sohasida jahon bozori yetakchilaridan hisoblanadi. Korporatsiya 100 dan ortiq

qurilmalarni loyihalashtirgan va amalga oshirgan.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati